

O`zbekiston Respublikasi
Davlat statistika qo`mitasi

2017 yil noyabr oyi uchun O`zbekiston Respublikasining
iste`mol sektorida inflyatsiya darajasi

1. Iste`mol narxlari indeksi va inflyatsiya darajasi

2017 yilning noyabr oyida tovar va xizmatlar narxlari darajasi o`rtacha 2,0%ga oshdi, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari 1,5%ga, nooziq-ovqat mahsulotlari 3,4%ga va xizmatlar 0,5%ga ko`tarilgan.

O`zbekiston Respublikasida iste`mol narxlari indeksi

	2017 yil noyabr 2017 yil oktyabr oyiga nisbatan, %	Yig`ma indeksga ta`siri ulushi, %
Iste`mol narxlari indeksi	102,0	100%
shu jumladan:		
oziq-ovqat mahsulotlari	101,5	33,4%
nooziq-ovqat mahsulotlari	103,4	61,3%
xizmatlar	100,5	5,3%

2. Oziq-ovqat mahsulotlarining iste`mol narxlari indeksi


yuqorida qayd etilganidek, oziq-ovqat mahsulotlari oy davomida o`rtacha 1,5%ga oshib, Iste`mol narxlari indeksining umumiy o`shish darajasiga 0,7 f.d.¹da ta`sir etdi.

Ma`lumot uchun: 2016 yilning noyabr oyida oziq-ovqat mahsulotlari 0,8%ga qimmatlashgan.

¹ foiz darajasida

2017 yil noyabr oyida asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'zgarishi

(o'tgan oyga nisbatan, %)



Meva-sabzavot mahsulotlari narxlarining darajasining o'zgarishiga mavsumiy omillar ta'sir etdi. Birmuncha sezilarli darajada pomidor va bodring mahsulotlari narxlarining oshishi 60,6% va 54,0%ga, uzum – 19,8%ga, olma – 14,1%ga qimmatlashdi. Shu bilan birga, sabzi – 17,2%ga, piyoz – 13,9%ga, karam – 12,9%ga va kartoshka – 1,1%ga arzonlashdi.

3. Nooziq-ovqat mahsulotlari iste'mol narxlarini indeksi


Nooziq-ovqat mahsulotlari oy davomida o'rtacha 3,4%ga qimmatlashishi iste'mol narxlarini indeksi o'sish darajasiga 1,2 f.d.da ta'sir etdi.

Ma'lumot uchun: 2016 yil noyabr oyida nooziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 1,8%ni tashkil etgan.

Narxlarining o'sish darajasiga asosan benzin mahsulotiga bo'lgan yangi narxlarining joriy qilinishi sabab bo'ldi (narxlarining o'rtacha o'sish sur'ati 39,7%), bu esa iste'mol narxlarini indeksi o'sishiga 0,5%ga ta'sir etdi. (iste'mol narxlarini indeksining umumiy o'sishida 26,5% f.d.da ta'sir qildi).

2017 yil noyabr oyida boshqa turdagi nooziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o`shishi quyidagi grafikda namoyon etilgan:

(o`tgan oyga nisbatan, %)



4. Xizmatlar iste`mol narxlarini indeksi

Noyabr oyida aholi uchun pullik xizmatlar sohasi bor-yo`g`i 0,5%ga o`sdi. Bu esa iste`mol narxlarini indeksining umumiy o`shishida 0,1% f.d.da ta`sir qildi.

Ma`lumot uchun: 2016 yilning noyabr oyida xizmatlar sohasi tarifi 0,4%ga oshgan.

Ushbu soxada asosiy inflyatsion omil sifatida maishiy xizmat tariflari 2,0%ga va chet tili o`quv kurslari uchun to`lovlar - 2,2%ga qimmatlashdi.